

BIR HARF ZIYODA QILINGAN BA'ZI SULOSIY MAZID FE'LLARINING YASALISH QOIDALARI

Umarali G'afforov,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

G.mail: gafforov96u@gmail.com

Annotatsiya. Arab tili boshqa tillardan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi. Ana shunday farqlaridan biri arab tilidagi barcha fe'llar muayyan vaznlarda tuzilishidir. Bu vaznlar ichida eng ko'p tarqalganlari sulosiy mazid boblari hisoblanadi. Ammo arab tilida barcha fe'llar birdek tuslanmaydi. Ular ichidan asli boshqacha bo'lib keyin o'zgarib ketadiganlari ko'p. Biz ham sulosiy mazidning bitta harf orttirilgan ba'zi fe'llarining tuslanish qoidalarini ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar: sulosiy mazid, sulosiy mujarrad, bob, if'ol, taf'iyl, arab tili, vazn.

Аннотация. Арабский язык отличается от других языков во многих аспектах. Одной из его характерных особенностей является то, что все глаголы строятся по определённым морфологическим моделям (awzān). Среди них наиболее распространёнными являются производные формы трёхкоренных глаголов (sulāsī mazīd). Однако не все глаголы в арабском языке спрягаются одинаково: многие из них имеют отклонения, поскольку со временем претерпели фонетические или морфологические изменения по сравнению с их исходной формой. В данной работе рассматриваются правила спряжения некоторых производных трёхкоренных глаголов с добавлением одного согласного.

Ключевые слова: sulāsī mazīd, sulāsī mujarrad, модель глагола (bāb), if'āl, taf'īl, арабский язык, морфологическая модель (wazn).

Annotation. The Arabic language differs from other languages in many respects. One of its distinctive features is that all verbs are structured according to specific morphological patterns (awzān). Among these patterns, the most widespread are the augmented triliteral verb forms (sulāsī mazīd). However, not all verbs in Arabic are conjugated uniformly; many exhibit irregularities, having undergone subsequent phonological or morphological changes from their original forms. In this study, we examine the conjugational rules of certain augmented triliteral verbs with the addition of a single radical.

Keywords: sulāsī mazīd, sulāsī mujarrad, verb pattern (bāb), if'āl, taf'īl, Arabic language, morphological pattern (wazn).

Kirish. Ma'lumki, if'ol bobi arab tilida eng ko'p ishlatiladigan boblardan biri hisoblanadi. Shuning uchun birinchi fe'lni ham shu bobdan boshlaymiz.

إِقَامَةٌ يُقِيمُ، أَقَامَ fe'li. Aqsomda ajvaf. Ajvaf shunday kalimadirki, xoh ism bo'lsin, xoh fe'l فَعَلَ ning ع barobarida harfi illat bo'ladi.[1] O'tgan zamon shakli أَقَامَ, hozirgi-kelasi zamonda يُقِيمُ. Masdari إِقَامَةٌ bo'lib, sulosiy mazidning birinchi bobi يُفَعِّلُ أَفْعَلُ bobidandir.

إِقَامَةٌ aslida إِقْوَامٌ edi. "Vov" harakatini oldingi harfga beramiz. "Vov" aslida harakatli, hozir oldi fathali, uni "yo"ga almashtiramiz, إِقَامٌ bo'lib, ikki sukun jam keldi. Ikki alifdan birini tushiramiz, إِقَامٌ bo'ldi. Tushirilgan alif evaziga ة keltiramiz, إِقَامَةٌ hosil bo'ldi.[2]

Adabiyotlar tahlili. Arab tilshunosligida sulosiy mujarrad va sulosiy mazid fe'llarning tuzilishi, vaznlari hamda tasriflanish qoidalari sarf ilmining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu masalalar klassik va zamonaviy manbalarda keng yoritilgan.

Jumladan, Do'stmuhammad Nasriddin Bodariyning "Mukammal sarf darsligi", Ibodullo Ahrorovning "Taysiyrus sarf", Rahmatullo Rasuljon o'g'lining "Janoh ut-tolib" hamda Ne'matullo Ibrohimov va Muhammad Yusupovning "Arab tili grammatikasi" asarlarida sulosiy mazid fe'llarning boblari, yasalish qonuniyatlari, masdar hosil bo'lishi hamda i'lol, idg'om kabi morfologik hodisalar batafsil tahlil qilingan.

Mazkur manbalar tadqiqot uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bir harf ziyoda qilingan ayrim sulosiy mazid fe'llarining yasalishi va tuslanishidagi o'ziga xos fonetik-morfologik o'zgarishlarni alohida o'rganish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bir harf ziyoda qilingan ayrim sulosiy mazid fe'llarning yasalish qoidalarini o'rganishda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va morfologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida arab tili sarfiga oid klassik va zamonaviy manbalar o'rganilib, if'ol, taf'iyil va mufaala boblariga mansub fe'llarning tuzilishi, tasriflanishi hamda ularda yuz beradigan i'lol, ibdol va idg'om hodisalari tahlil qilindi. Shuningdek, sulosiy mujarrad va sulosiy mazid fe'llar o'zaro qiyoslanib, ularning grammatik va semantik xususiyatlari aniqlandi. Olingan natijalar ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. يُفَعِّلُ aslida يُفَعِّلُ edi. If'ol bobida moziy أَفَعَّلَ fe'lidan muzore yasash uchun oldiga muzora'at harflari qo'shilsa, hamzasi qat'iyya bo'lgani uchun يُفَعِّلُ يُفَعِّلُ kabi bo'lishi kerak, lekin so'zlovchi (mutakallim) birligida أَفَعَّلَ bo'lib, ikkita hamzaning bir joyda aytilishiga to'g'ri keladi. Bu esa ravon arab tiliga yot bo'lgan qo'pollikdir. Shuning uchun umuman muzore'da, g'oib va muxotablarida ham bob alomati bo'lgan qat'iyya hamza yozuvda ham, talaffuzda ham tushiriladi.[3]

يُفَعِّلُ yuqoridagi qoidaga ko'ra hosil bo'ldi. Lekin shu bilan hali tugamadi. و ga kasra harakati og'ir bo'lgani uchun uning kasrasini o'zidan oldinda turgan ق harfiga beramiz.[4] يُفَعِّلُ bo'ldi. و sukunli bo'lib o'zidan avval kasra kelsa ي ga aylantiriladi.[5] Shunga ko'ra yakunda يُفَعِّلُ ga o'zgardi.

Sulosiy mazid fe'llaridan yana biri كَبَّرَ, يُكَبِّرُ fe'lidir. Sulosiy mazidning ikkinchi bobi taf'iyil bobiga oid. Aqsomda sahih. Moziyda كَبَّرَ, muzoreda يُكَبِّرُ bo'lib buyruq fe'li ikkinchi shaxs muzore fe'llaridan hosil qilinadi. Solim fe'llarning II shaxsi uchun buyruq mayli quyidagicha hosil bo'ladi: فَعَّلَ → تَفَعَّلَ → تَفَعَّلَ [6]

Demak II shaxs muzakkar jinsi uchun buyruq fe'lini تُكَبِّرُ fe'lidan olamiz. Oxirini sukunli qilamiz تُكَبِّرُ bo'ldi. Avvalidagi muzoreat harfini ham olamiz كَبَّرَ qoldi. Jumladagi bu fe'ning foili fe'ning ostidagi أَنْتَ zamiridir. Yuqorida aytganimizdek كَبَّرَ ning masdari كَبَّرَ dir. Ma'nosi kattalashtirish, ulug'lash, Allohu akbar lafzini aytishdir. Uning sulosiy mujarradi كَبَّرَ يُكَبِّرُ كَبَّرَ bo'lib katta bo'lish ma'nosini anglatadi.

Navbatdagi bir harf orttirilgan sulosiy mazid fe'limiz صَلَّى bo'lib, moziyda صَلَّى, muzoreda يُصَلِّيُ, masdari صَلَّى dir. U sulosiy mazidning ikkinchi bobi تَفَعَّلَ dan. Bu bobning masdari besh xil vaznda keladi:

1. تَفْعِيلٌ misoli تَفْرِيحٌ -shodlantirmoq ma'nosida;
2. تَفْعَلَةٌ vaznida. Bu vaznda odatda fe'ning lomi barobarida illat harfi bo'lganda keladi. Misoli تَسْوِيَةٌ -barobar qilmoq ma'nosida. Yana bir misol: طَوَى الرَّجُلُ تَطْوِيَةً och qolmoq ma'nosida. Ba'zida fe'ning lomi illat harfli bo'lmasa ham تَفْعَلَةٌ vaznida keladi. Masalan: تَبَصَّرَةٌ izoh qilish, bildirish va ko'ngil ko'zini ochiqligi ma'nosida. تَذَكَّرَةٌ - nasihat qilish. تَفَرَّقَةٌ - bo'lish kabilar;

3. تَفْعَالٌ vaznida. تَعْدَادٌ va تَكَرَّرٌ kabi. Ushbu vaznda ayni va lomi bir xil harf bo'lgan fe'llar keladi;

4. فَعَّالٌ vaznida. كَذَّابٌ – yolg'onga nisbat bermoq ma'nosida;

5. مَفْعَلَةٌ vaznida. مُمَزَّقَةٌ kabi. “Yirtmoq” ma'nosida.[7]

Yuqorida صَلَّى fe'lining masdari صَلَاةٌ dedik, lekin aslida qiyosan uning masdari تَصَلِيَةٌ bo'lishi kerak. صَلَّى fe'lining bir-biriga zid bo'lgan ma'nolari borligi uchun duo va rahmat ma'nolarida kelganda صَلَاةٌ ishlatiladi. Bu so'z masdarning o'rniga qo'yilgan ismdir. “Kuydirish” hamda “olovda qoldirish” ma'nolarida kelganda esa تَصَلِيَةٌ qo'llaniladi.[8] Bu haqiqiy, qiyosiy masdari.

صَلَّى fe'li aqsomda noqis. Noqis nuqsonli kalimadir. Oxirgi harfini ba'zi siyg'alarida olib tashlash bilan nuqsonli bo'ladi. Noqis shunday kalimadirki, xoh ism bo'lsin, xoh fe'l “lom”ning barobarida illat harfi bo'ladi.[9]

صَلَّى fe'li aslida صَلَّى edi. ي illat harfi harakatli bo'lib o'zidan avval fatha keldi, uni alifga o'zgartiramiz. Chunki و yoki ى harakatli bo'lib, oldingi harf fathali kelsa, alifga qalb qilinadi[10] (o'zgartiriladi) degan qoida bor. Alifga o'zgartirilgan bo'lsada, ى ko'rinishida alifi maqsura qilib yoziladi.

Navbatdagi fe'l أَهْبَطُ. Bu ham sulosiy mazidning birinchi bobi اِفْعَالٌ dan. Moziyda أَهْبَطُ , muzoreda يُهْبِطُ , masdari اِهْبَاطٌ. Aqsomda sahih fe'l hisoblanadi. Sulosiy mujarraddagi shakli هَبِطُ , muzoreda اَيْنَ بَارِبَارِي يَوْكِي زَامْمَالِي يَوْكِي كَاسْرَالِي هَام كَالِشِي مُمْكِن. Masdari هُبُوطٌ. Ma'nolari: “tushmoq”, “pasaymoq” (qush haqida), “tushmoq”, “kamaymoq” (narx haqida), “pasaymoq”, “tinchimoq” (shamol haqida), (nimanidir) “tushirmoq”, “qulamoq” (shift haqida), “o'pirilmoq” (devor haqida), “kelmoq”, “yetib kelmoq”, (qayergadir) “jo'namoq” (إِلَى bilan).

Keying fe'l لَا يُؤَافِقُ. Sulosiy mazidning uchinchi bobi فَاعِلٌ , يُفَاعِلُ , مَفَاعَلَةٌ bobidan. Bu bobning masdari uch xil vaznda kelgan:

1. مَفَاعَلَةٌ – misoli مَفَاعَلَةٌ

2. فَعَّالٌ – misoli فَعَّالٌ

3. فَيِّنَالٌ – misoli فَيِّنَالٌ [11]

Bularning barchasining ma'nosi “ikki kishi bir-biri bilan urushdi”, “bir-birini dushman ko'rdi” ma'nosida.

يُؤَافِقُ ning moziysi وَاَفَقَ , muzoresi يُؤَافِقُ , masdari مُوَافَقَةٌ va وَاَفَقَ keladi.[12] Aqsomda misol fe'li. Misol deb so'zning “fo”si barobarida illat harfi kelgan fe'lga aytiladi. Masalan: وَاَفَقَ [13] Sulosiy mujarrad(qo'shimchasiz uch harflik)dagi fe'li moziyda وَاَفَقَ , muzoreda يَفِيقُ.

Misol fe'li bo'lgani va o'zidan keyingi harf kasrali kelgani uchun و hazf qilinyapti (o'chirib yuborilyapti). Masdari وَفَّقَ. Ma'nosi (bir narsani) “muvofoiq ravishda topish”.

Bir harf orttirilgan sulosiy mazid fe'llaridan yana biri اَعْطَى fe'lidir. Bu fe'l sulosiy mazidning birinchi bobi اَفْعَلُ اِفْعَالٌ يَفْعَلُ اَفْعَلُ bobidan. Moziyda اَعْطَى , muzoreda يُعْطِي , masdari اِعْطَاءٌ bo'ladi. اَعْطَى fe'li aqsomda noqis. اَعْطَى ning asli اَعْطَى edi. ي harakatli bo'lib, oldingi harf fathali kelsa, alifga o'zgartiriladi.[14] Alifga o'zgartirilgan bo'lsada, ي ko'rinishida alifi maqsura qilib yoziladi. يُعْطِي ham aslida يُعْطِي bo'lgan. ي ga zamma og'ir bo'lgani uchun ي ni zammagini tashladik, يُعْطِي bo'ldi.[15] Masdar bo'lmish اِعْطَاءٌ ning asli اِعْطَاءٌ edi. Bu yerda ي alifi zoidadan keyin kelgan. ي alifi zoidadan keyin kelsa, ي ni hamzaga qalb qilinadi.[16] Shu qoidaga binoan اِعْطَاءٌ ga aylandi. Sulosiy mujarraddagi shakli عَطَا , يعطو , يعطو. Ma'nosi “ biror narsani tanovul qilmoq”.[17]

Xulosa. Biz yuqorida bir qator sulosiy mazid fe'llarning yasalish qoidalari va grammatik xususiyatlarini tahlil qildik. Xususan, bir harf ziyoda qilingan if'ol, taf'iyl va mufaala boblariga mansub ayrim fe'llarning moziy, muzore va masdar shakllari hamda ularda uchraydigan fonetik-morfologik o'zgarishlar ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, arab tilida fe'llarning yasalishi qat'iy morfologik qonuniyatlarga asoslanadi va har bir bob o'ziga xos semantik hamda grammatik vazifani bajaradi.

Shuningdek, ajvaf, misol va noqis kabi illat harfli fe'llarda i'lol, ibdol va hazf hodisalari natijasida fe'l shakllarida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelishi aniqlandi. Bu holat arab tili morfologik tizimining murakkab va mukammal ekanligini namoyon etadi.

Mazkur maqolada asosan bir harf ziyoda qilingan sulosiy mazid fe'llar misolida tahlillar olib borildi. Biroq arab tilida sulosiy mazid fe'llarning ikki va uch harf orttirilgan shakllari ham mavjud bo'lib, ular ham o'ziga xos yasalish qoidalari, semantik ma'nolari va tasriflanish xususiyatlariga ega. Xususan, اَفْعَلُ , اَفْعَالٌ , اَفْعَالٌ , اَفْعَالٌ kabi boblar fe'l ma'nosini kuchaytirish, o'zaro harakatni ifodalash, talab qilish yoki ma'lum holatga kirishni bildirish kabi vazifalarni bajaradi.

Kelgusida ushbu boblarning grammatik va semantik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, ularni sulosiy mujarrad va bir harf orttirilgan fe'llar bilan qiyosiy tahlil qilish arab tili morfologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada boyitishga xizmat qiladi. Bu esa arab tilini o'qitish va o'rganish jarayonida fe'l tizimini mukammal anglash hamda amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro'z”, 2018. – B.20.
2. Ibdulloh Ahrorov. Taysirus sarf. – Toshkent: “ZUKKO KITOBXON”, 2022. – B.76.
3. Rahmatulloh Rasuljon o'g'li. Janoh ut-tolib. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2006. – B.34.
4. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro'z”, 2018. – B.233.
5. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro'z”, 2018. – B.113.
6. Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi 1 jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 1997. – B.168.

7. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.238
8. al-maktaba.org sayti
9. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.21
10. Ibdulloh Ahrorov. Taysirus sarf. – Toshkent: “ZUKKO KITOBXON”, 2022. – B.33
11. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.244
12. Mo‘jamul vasiyt
13. Ibdulloh Ahrorov. Taysirus sarf. – Toshkent: “ZUKKO KITOBXON”, 2022. – B.7
14. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.160
15. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.131
16. Do'stmuhammad Nasriddin Bodariy. Mukammal sarf darsligi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.160-161

